

"Kon ishi"

Ikromova Shaxnoza Axmad qizi

Uchquduq kasb hunar maktabi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston hududida foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish, kon lahimlarini o'tish usullarining amalga oshirilishi, kon lahimlarini o'tishning eng samalali usullaridan hisoblangan burg'ilash va portlatish ishlari, ruda konlarini ochish va qazib olishda portlatish to'g'risida to'liq bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *tog' jinsi, kon massivi, kon lahimi, ma'dan tanalari, magmatik cho'kindi, metamorfiklar, ruda konlari, konchilik ishlari.*

Kirish:

Ma'lumki, insonlar ma'dan tanalarining yer yuzasiga chiqib qolgan yotqiziqclariga qoqilib yurishlari hozirgi vaqtda o'tmishda qolib ketdi. Hozirgi geolog foydali qazilmani topish uchun yer qa'rini chuqurroq qazib izlashi zarur. Buning uchun turli xil usullar va texnologiyalar mavjud, biroq burg'ilash va portlatish faoliyatlari kon lahimlarini o'tishning eng samarali usuli hisoblanadi. Yer qa'ridagi foydali qazilma konlarini qazib olish kon lahimlarisiz umuman mumkin emas, shuningdek qazib olish ishlari davrida ekspluatatsion kon lahimlarining ko'ndalang kesim yuzasi hajmi kattaroq bo'ladi. Agarda kon qidiruv lahimlari geologlar uchun qisqa muddat tog' jinslari va foydali qazilmalarni o'rganish uchun xizmat qilsa, ekspluatatsion kon lahimlari esa konchilarga uzoq muddat konni qazib olishda xizmat qiladi. Ekspluatatsion kon lahimlari vazifalariga ko'ra kapital, tayyorlovchi va qazib oluvchi kon lahimlariga bo'linadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Tabiatda fizik-kimyoviy va biologik yemirilishlar tog' jinslarini parchalaydi. Tub tog' jinslarining bir xil bo'laklari yemirilish natijasida o'z joyida qoladi, yoki shamol va suvlar yordamida biror- bir masofaga olib ketiladi. Tub tog' jinslari magmatik cho'kindi va metamorfiklarga bo'linadi. Magmatik tog' jinslari otilib chiqqan lavaning so'vib qotganidan so'ng hosil bo'ladi. Bunday tog' jinslariga granit, diorit, gabbro, diabaz, bazalt va boshqalar kiradi.

Kon lahimini o'tish ishlari juda og'ir texnologik jarayonlarga kiradi. Geologik qidiruv faoliyatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular asosan uncha takomillashmagan infratuzilma muhitda yoki umuman infratuzilma yo'q joylarda amalga oshiriladi. Kon lahimlarini o'tish uchta asosiy usulda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) maxsus kon lahimini o'tish mashinalar yordamida mexanizatsiyalashgan;
- 2) qo'l kuchi kirka, lom va boshqa vositalar yordamida;
- 3) burg'ilash va portlatish ishlari yordamida.

Kon lahimlarini o'tish usullari geologik-geografik va iqtisodiy sharoitlarga va amalga oshiriladigan faoliyatlar darajasiga qarab tanlanadi. Geologik ishlarning parametrlari va ko'lami, intensivligini aniqlash uchun tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyati, qoplama puch tog' jinslarining qalinligiga va geologik qidiruv bosqichiga bog'liq.

Natijalar:

Ruda konlarini ochish va qazib olishda portlatish skvajina, shuningdek shpurlarni burg'ilash ishlari amalga oshirish uchun ko'p mehnat va katta mablag' talab qilinadi. Bugungi davr konchilik ishlari texnikasi va texnologiyasining taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, qattiq va mahkam jinslardan tashkil topgan ruda va ko'mir konlarini qazib olishda burg'ilash va portlatish usullaridan foydalanish

yagona va eng asosiy usul bo'lib, uning samaradorligi, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va konchilik ishlarining tezlik darajasi burg'ilash ishlarining samaradorligiga bog'liq.

Bugungi kunda sekin harakatlanuvchi burg'ilash uskunalari o'rniga yuqori quvvatli pnevmo g'ildirakli o'zi yurar mashinalar, burg'lovchi uskunalar, avtonom yuritgichlari bo'lgan yuklovchi-tashuvchi, burg'ilash, mustahkamlagich o'rnatuvchi mashinalar yer osti ishlarida ishchilarni, materiallarni va yuklarni tashuvchi mashinalar, lahimlarni mustahkamlovchi, shpur va skvajinalarni zaryadlovchi mashinalar kirib keldi.

Muhokama:

Hozirgi vaqtdagi konchilik amaliyoti foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib oluvchi konchilik korxonalariga zaxiralarni yuqori chuqurliklardan ham qazib olish taklifini bermoqda. Sababi foydali qazilma zaxiralarini geologik tadqiq qilish chuqur gorizontlarda ham qazib olishga yetarli bo'lgan foydali qazilma miqdorlarini ko'rsatmoqda. Yer osti usulida qazib oluvchi konchilik korxonalarini mazkur zaxiralarni qazib olishni to'g'ridan-to'g'ri kon lahimlari orqali amalga oshiradi. Bu hududdagi kon lahimlarida mustahkamlash ishlarini olib borish uchun, shu joydagi tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganmasdan turib, mustahkamlash materiallari va ularni mustahkamlash texnologiyalarini tanlay olinmaydi va amalga oshirib bo'lmaydi.

Konlar chuqurlashgan sari, kon lahimlari devorlariga ta'sir etadigan kuchlarning miqdorlari o'zgarib boradi. Mazkur kuchlarning keskin o'zgarishlari esa kon lahimlarida kon zarbalarini xavfini yanada oshirib yuboradi. Bunda mustahkamlagichlarga tushadigan bosim miqdorining oshishi mustahkamlagichlarni deformatsiyalanishiga olib kelishi va mazkur kon lahimlarida mustahkamlash ishlarini olib borish imkonini yaratmasligi mumkin.

Bu esa chuqur gorizontlarda an'anaviy mustahkamlash texnologiyalarini o'zgartirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, asosan atrof-muhitga kon faoliyatining ta'siri shamol va relyef kabi omillar natijasida tarqaladi. Aynan Ohangaron vodiysining yuqori qismidan to quyi Ohangarongacha relyefning nishabligi sabab quyi qismida chiqindilar bilan zararlanish miqdori yuqoriroq. Holatni yaxshilash uchun chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich va uzluksiz amalga oshirish kerak. Xususan, havodagi zararli birikmalarni tozalashga yordam beradigan daraxtzorlarni ko'paytirish, tabiiy filtr faoliyatlariga ahamiyat qaratish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mislibayev, I., F.Umarov. Yer osti konchilik ishlari texnologiyasi: darslik / Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
2. Umarov B.T. Кон - qidiruv lahimlarini o'tish. O'quv qo'llanma. // T.: "Lesson Press" nashriyoti, 2021.
3. Sagatov N.H. Kon ishlari asoslari. Cho'lpon, Toshkent, 2007.
4. Hasanov A.S. va boshqalar. Rangli metallurgiyasi. Fan, Toshkent, 2010.